

SH. XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA O‘ZBEK XALQI XARAKTERI

Hayitova Aziza Baxtiyor qizi

Termiz davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti

Amaliy filologiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi

azizahayitova@gmail.com

Tel.: +998.93.163.72.04

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15584039>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sh. Xolmirzayev hikoyalarida o‘zbek xalqining xarakteri haqida ma’lumot berilgan. Hikoyalardan olingan xuloslar o‘zbek millatining turmush tarzi, madaniyati, insoniylik tuyg‘ularini bilishga xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: Hikoyalar, xarakter, insonparvarlik, milliy qadriyat.

Annotation. In this article, Sh. The stories of Kholmiraev contain information about the Uzbek mumor. Cash of stories served to know the way of life, culture, culture of humanity.

Keywords: stories, character, humanity, national value.

Аннотация. В этой статье Sh. Истории Холмирзаева содержат информацию о Узбекском мюморе. Денежные средства историй послужили, чтобы знать образ жизни, культуры, культуры человечества.

Ключевые слова: истории, характер, человечество, национальная ценность.

O‘zbek xalq yozuvchisi Sh. Xolmirzayev asarlarida o‘zbek xalqining hayoti aks ettirilib, yozuvchining mahorati, ijod mahsuli natijasida kitobxonlar uchun insonlarning "oq va qora" kunlari haqida bayon qilinadi. Qiyin kunlarda insonlar matonati, mehmomdo‘stligi hayotiy voqealar asosida tasvirlanadi. Shukur Xolmirzayev zamonaviy o‘zbek nasrining zabardast vakillaridan biridir. U adabiyot maydoniga 1950-yillarning oxirida kirib kelgan. Dastlabki asarlaridan boshlab hayotning o‘ziga yaqin va tanish jihatlarini qalamga olgan, tasvirda samimiylikka intilgan, qahramonlar ruhiy olami tahliliga alohida e’tibor bergan.

Manba <https://tafakkur.net/shukur-xolmirzayev.haqida> Adib hikoyalarida berilgan voqealar rivojidan namunalarva xulosalar:

1. "O‘zbekning soddasi" hikoyasi "Polvon bobo" nomli shaxs haqida so‘z boradi. Juda sodda, nima bo‘lsa ham "E" deb ketaveradigan o‘zbekning odami, savodi yaxshi bo‘lmaganligi sababli uning ko‘p "moli"ni yeb ketadiganlar topiladi. Ayoli qancha gapirsa ham "E" bilan tugaydi. Bolasi 2-sinfda o‘qigan paytlarida savodi yaxshi bo‘lganligi sababli otasiga yordam beradi. Lekin soddaligi tufayli uning nomiga pul olgan deb yozadi. Bunga ham "E" deydi.



O'zbek odamining bu kabi kundalik ishlarda bo'ladigan muommalarga e'tibor bermasligi ori kuchli ekanligidan dalolat beradi.

2. "O'zbeklar" hikoyasi paxta terimi bilan bog'liq jarayonda o'zbeklarning xarakteri ochib berilgan bo'lib, yozuvchi o'zining endi talaba bo'lgan paytidan so'zlaydi. U hikoyasini bevosita kitobxonga so'zlab boradi. Hikoyadan ma'lumki, yozuvchi tabiati sofdil, beg'ubor, birovning haqini yemaydigan, jonkuyar bola bo'lgan. U Bo'ka tomonlarga paxta terish uchun kursdoshlari bilan birga boradi. U faqirona o'zbek hayotini, yashash sharoitini, o'zbeklardagi tantilikni, soddalikni, mehmondo'stlikni so'zlab beradi. Ayniqsa, mehmondo'st, hammani o'zidek ko'radigan Botir cho'pon oilasini juda xurmat qiladi. Ularga imkon qadar og'irligini tushirmaslikka harakat qiladi. O'rmon aka, Azimjon, Mirzag'olibdek insonlar faqat o'z foydasini, birovning ahvoli bilan ishi bo'lmaydigan insonlardan edi. Ular mehr ko'rsatgan oilaning noniga xiyonat qiladi (O'rmon akalarning guruhi ularning yo'qolgan qo'yini yashirinchayeydi). Bolakay kasal bo'lganida bu oila qo'ldan kelgancha yordam beradi... Har kuni bolalarni uyiga mehmon qiladigan oila edi. Kambag'alligini yashirib, borini ham mehmonlarga berardi. Hikoya so'ngida Botir aka, uning ayoli barcha bilan xayrlashib, bola bilan xayrlashmaydi. Ularning nazdida bola ularni "pisand qilmagan". Hikoyada bola Botir cho'pon oilasiga og'irligi tushmasligi uchun uyiga bormaydi. Ularning yashash tarzi hammaga ma'lum edi...

3. "Tabassum" hikoyasi Jalil boboning o'lim yoqasiga yaqinlashib qolganlik paytlarida Sadaf nevarasining Mo'min boboning nevarasiga unashtirilishi Jalil boboga yoqmaganligi, ya'ni Mo'minning martaba uchun harbiy topshiriqda nomardlik qilganligi, Jalilni majburlagani uchun ont ichdirganligi tufayli Mo'minni yomon ko'rar edi. Nevarasining unashtirilishiga qarshi edi, lekin qo'ldan hech narsa kelmasdi. Nevarasini Mo'min bobo oilasiga kelin bo'lishini xohlamasdi, u o'limini tezlatish orqali to'yni qoldirishga urindi va niyatiga yetdi. Xulosa. O'zbek xarakteri: Insoniylikning eng oliy ko'rinishlaridan biri bo'lib, jonini qurbon qilishi va vadasida turganligi, hech kimga aytmaganligi tahsinga sazovordi.

4. "Sog'inch" hikoyasi Azim ismli yigit bolaligidan ta'sirchan, ko'ngli bo'sh bo'lib ulg'ayadi. Katta bo'lib shaharda ishlab qolgach, uni ko'ngli ham shahar sharoitiga moslashib, mehrsiz bo'lib qoladi. U bilan birga katta bo'lgan Ismatjon bilan doim iliq munosabatda bo'ladi. Birga ovlarga borishadi. Har shahardan kelganida Ismat bola bilan birga ovga ketadi. Ismat ovdagi barcha ulushni Azimga beradi. Unga nisbatan juda mehribon bo'ladi. Lekin Azimning munosabati shaharga borgach unitiladi. Bir safar Azim dam olishni boshqa joyga





oilasi bilan ketgach, bir yil qishloqqa borolmaydi. Bir safar Azimga maktub keladi. U Ismatdan bo'lib, u Ismatni ko'rganida. Qishloqda uni faqat Ismat bog'lab turganini va qishloqning sog'inchi aynan Ismatligini anglab yetadi...

5. "Olma yemadim" hikoyasi 4 ta o'rtoqning sayohati tasvirlangan. Yo'lda bir qishloqdan o'tyotganida g'arq pishgan olmalarni ko'radi, qishloq aholisi bu yerni tark etgan, kimsasiz, haroba joy edi. Egasi yo'qligi uchun olmalarni olmoqchi bo'ladi va xaltalariga ham solib olishadi, bir sherigi, ya'ni hikoya qilib beruvchi shaxs olmani olish o'g'irlik sanalishini aytib, bog'ga bormaydi, yo'lini davom ettirgach, boshqa do'sti "qitmirligi tutib", suvsiz joydan yo'l boshlaydi, maqsadi do'stiga olmani yedirtish edi. Chanqagan do'sti eng yaqin do'stidan olma olib, og'ziga tishlaganida kuzatib turgan do'stlari ana yeding deb kulishadi, yigit olmani tuflab, yerga otib yuboradi. Olma yemadim deydi...Yozuvchi xulosa qilib aytadiki, inson baribir to'g'ri yasholmas ekan deb, qaysidir o'rinda xato qiladi.... Ikkinchi tomondan olmalar to'kilib yotibdi, uni hech kim olmasa, chirib ketgandan ko'ra odamzod yesa, foydalansa yaxshimasmi, bu Alloh bergan ne'mat bo'lsa, ekan odamga savob emas bo'ladi.

6. "Qadimda bo'lgan ekan...". Hikoyada ayrim o'zbek xonadonlarida bo'ladigan holat tasvirlangan. O'sar o'z momosidan bezgan, tilidan har kun so'kish, zahar tomadigan odam. Uning bu holatga kelishiga kundalik turmush, yo'qchilik, hayot tashvishlari sabab bo'lgan deyishimiz mumkin. Xotiniga ham qo'pol muomala qilishi, erkaklik ori yo'qolib ketganligi (momosining ortiqchalik qilishi) kabilar uning pastkashligini korsatar balki, menimcha u o'zi nima qilyotganini bilmaydi, ichida ikkita odam yashayotgandek. "Qadimda bo'lgan ekan..." Hojar (O'sarning ayoli) insoniylik tuyg'usi bor, zotan kelin bo'lsa-da nevarasidan ko'ra momosiga yaxshilik tilardi. O'sarning onasi tashlab ketgan bo'lsa ham momosi hayotini nevaralariga bag'ishladi. Lekin yaxshilikka javob, odamzod yaxshilikni bilmaydi. Hikoyada momo topildi, lekin bo'lar ish bo'ldi, odamning xarakteri bilindi, balki hayot charxpalagi aylanib, O'sarga ham qaytarishi mumkin.

7. "Ustoz" hikoyasi. Ustoz yordam berishga doim shay, shogirdlarning ijodini so'ndirmaslikka harakat qiladi. Hikoyada hikoya qilinuvchi bola juda talantli, cho'rtkesar edi. Buni hikoyachi ham hikoya boshida e'tirof etadi. Yetimxonada ulg'ayib, hech kimi yo'q bo'lib, suyangani faqat shu ustoz bor edi. Hikoyasini nashriyotga olib boradi, lekin siyosatga aralashgani uchun chiqartirilmaydi. Bola kasal bo'lib qoladi, ustoz qo'ldan kelgancha yordam beradi, lekin o'zi ham isitmalab qolgach, 4 kunlab bolaning oldiga borolmaydi. Shifokorga ishonib, kech borgach, bola morgda yotgan bo'ladi....Xulosa. Ustoz



yoshlarning ishini qo'llab-quvvatlaydigan, ularga moddiy, ma'naviy yordam berishdan tolmaydigan shaxsdir.

8. "Sayr" hikoyasi Jo'raning oilaviy bo'lib, o'rtoqlari bilan tog'ga sayr qilish jarayonida onasining kuzatib qo'yishi, unga mehribonligi, keliniga ehtiyotkor bo'lishi uchun maslahatlar berishi tasvirlangan. Ona mehribon zot, hech kim onachalik bolasiga bo'lgan mehrni tuymaydi, hikoyada ona bolasining atrofida girdikabalak bo'ladi, onaning ko'ngli bilan bolaning ishi yo'q, men ham boray sayrga desa, avval xo'p deb, keyin bahona, xullas, o'zicha maza qilib aylanishiga halaqit beradiganday tuyiladi... Ona baribir bolasining yonini olgandek, o'zini ovutadi... Hikoyada onaning ko'ngli bilan ishi yo'q bola tasvirlangan. "Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada" deyilgan kabi o'zbek onalarining farzandiga mehribonligi, farzandlarning ayrimlari onasiga e'tiborsizligi berilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, adib o'zbek xalqi hayotida uchraydigan voqealar asosida ularning xarakterini ko'rsatib bergan. "O'zbekning soddasi" hikoyasida erkak kishining oriyati haqida "O'zbeklar" hikoyasida insonlarning mehmondo'stligi, g'amxo'rliqi, ayrim shaxslarning tubanligi haqida "Tabassum" hikoyasi orqali insonning jonini berishga ham tayyorligi, vadasida turishi, ayrimlarning g'ururini sotishi kabilar "Sog'inch" hikoyasida do'stlarning bir-biriga mehri tushganligi, ularni bog'lovchi narsa ularning do'stligi ekanligi, "Olma yemadim" hikoyasi insonning halolligini sinovchi voqealar tasvirlanganligi, "Qadimda bo'lgan ekan..." hikoyasi inson qariganidan so'ng hech kimga kerak bo'lmay qolishi haqida "Ustoz" hikoyasi ilm yo'lida yurgan yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi, ularga moddiy tomondan yordam berishga tayyor ustoz haqida "Sayr" hikoyasida o'zbek onalarining mehribonligi, farzandlarning bemehrligi tasvirlangan. Hikoyalarda o'zbek turmush-tarzida bo'ladigan voqealar tasvirlanib, ularda o'zbek xalqi xarakteri orqali milliy qadriyatlar, insoniylik tuyg'ulari ko'rsatib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Xolmirayev "Olis yulduzlar ostida" Hikoyalar va ocherklar. Toshkent. "Yosh gvardiya" nashriyoti. 1971.
2. Sh. Xolmirayev "Hayot abadiy" Hikoyalar. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1974.
3. Sh. Xolmirayev " Og'ir tosh ko'chsa..." Hikoyalar va qissalar. Toshkent. "Yosh gvardiya" nashriyoti. 1980.
4. <https://tafakkur.net>

